



BUXORO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

BUXORO VILOYATINING DEMOGRAFIK HOLATI



2022-yil yanvar-iyun

BUXORO VILOYATINING DOIMIY AHOLISI

2022- yil 1- iyul holatiga, dastlabki ma'lumotlar

Buxoro viloyatida 2022-yil 1-iyul holatiga doimiy aholi soni **1 990,4 ming kishini** tashkil etib, yil boshigan **13,6 ming kishiga** yoki **0,7 %** ga ko'paydi. Jumladan, shahar aholisi soni **732,1 ming kishini** (jami aholi sonidagi ulushi **36,8 %**), qishloq aholisi soni **1 258,3 ming kishi** (**63,2 %**)ni tashkil etdi.



Doimiy aholi soni

1 990,4 ming kishi



Tug'ilganlar soni

19,5 ming kishi



O'lganlar soni

4,3 ming kishi



Nikohlar soni

6,5 ming birlik



Nikohdan ajralishlar soni

1,4 ming birlik



Ko'chib kelganlar soni

3,0 ming kishi



Ko'chib ketganlar soni

4,6 ming kishi

Doimiy aholi soni hisobini yuritishda, hisobot yili boshidagi aholi soniga hisobot davrida tug'ilganlar va ko'chib kelganlar soni qo'shilib, o'lganlar va ko'chib ketganlar soni ayirib tashlanadi.

Buxoro viloyati bo'yicha asosiy demografik ko'rsatkichlar

kishi




Buxoro viloyatida 2022- yilda tug'ilganlar soni 2021- yilga nisbatan **1592** kishiga yoki **8,9 %** ga ko'paydi, vafot etganlar soni esa 2021- yilga nisbatan **19** kishiga yoki **0,4 %** ga ko'paydi.

Shuningdek, qayd etilgan nikohlar soni 2021- yilga nisbatan **978** kishiga yoki **7,0 %** ga kamaygan, nikohdan ajrashganlar soni **373** kishiga yoki **6,1 %** ga ko'payganligi kuzatildi.

Yosh guruhlari bo'yicha aholi soni

2022- yil 1- yanvar holatiga




2022- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, viloyat doimiy aholisi sonining **29,1 %** i mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, **58,6 %** i mehnatga layoqatli yoshdagilar va **12,3 %** i mehnatga layoqatli yoshdan kattalar



Doimiy aholi sonining taqsimlanishi

2022- yil 1- iyul holatiga




Doimiy aholi sonining hududlar boʻyicha

1- iyul holatiga, ming kishi

	2021- yil	2022- yil	Oʼsish surʼati, % da
Buxoro viloyati	1 958,5	1 990,4	101,6
Buxoro sh.	282,3	286,3	101,4
Kogon sh.	61,9	63,0	101,8
<i>tumanlar:</i>			
Olot	100,6	102,0	101,4
Buxoro	170,3	173,3	101,8
Vobkent	142,2	144,5	101,6
Gʼijduvon	308,9	314,0	101,7
Kogon	80,1	81,7	102,0
Qorakoʻl	165,9	168,3	101,4
Qorovulbozor	18,8	19,3	102,7
Peshku	125,3	127,6	101,8
Romitan	144,8	147,3	101,7
Jondor	177,5	180,3	101,6
Shofirkon	179,9	182,8	101,6

Buxoro viloyati bo'yicha aholi zichligi


2022- yil 1- iyul holatiga, 1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni, kishi



Buxoro viloyatida 2022- yil 1- yanvar holatiga 1 kvadrat kilometrga o'rтacha **49,5** kishi to'g'ri kelgan. Bu esa o'tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda **0,8** kishiga ortgan (2021- yilda 1 kv.km.ga **48,7** kishi).


Hududlar bo'yicha qaraydigan bo'lsak, aholi zichliginig eng yuqori ko'rsatkichi Kogon shahrida **4104,2** kishi, Buxoro shahrida **3930,6** kishi, Vobkent tumanida **495,6** kishi, Kogon tumanida **162,0** kishini, Buxoro tumanida **131,2** kishi tashkil etgan bo'lsa, eng past ko'rsatkichlar Qorovulbozor tumanida **8,8** kishi, Peshku tumanida **14,6** kishi, Qorako'l tumanida **19,4** kishi, Olot tumanida **31,6** kishi, Jondor tumanida **34,9** kishi, Shofirkon tumanida **49,2** kishini tashkil etgan.

QAYD ETILGAN TUG'ILISHLAR



Hududlar kesimida tug'ilganlar soni

2022- yil yanvar-iyun, kishi



2022- yil davomida **19,4** mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti **19,8** promilleni tashkil etdi hamda bu ko'rsatkich 2021- yilga nisbatan **1,4** promillega oshganligi kuzatildi (**2021- yilda 18,4 promilleni tashkil etgan**).

Tug'ilishlarning chaqaloqlar soni bo'yicha taqsimlanishi



2022- yilning yanvar - iyun oylarida qayd etilgan tug'ilishlarda tug'ilgan chaqaloqlar soni bo'yicha quyidagi ulushga ega bo'ldi:

- 1 nafar 98,3 %,
- 2 nafar 1,7 %,
- 3 va undan ortiq 0,03%


Tug'ilgan chaqaloqlar ota-onasining ma'lumoti bo'yicha taqsimlanishi



2022- yil davomida qayd etilgan tug'ilishlarda chaqaloqlar otasining ma'lumoti bo'yicha oliy ma'lumotga ega bo'lganlar 21,1 % ni tashkil etgan bo'lsa, onasining ma'lumoti bo'yicha bor yo'g'i 19,1 % ni tashkil etgan. Qayd etilgan


tug'ilishlarda farzand ko'rgan ayollarning eng ko'p qismini professional ma'lumotga ega bo'lganlar tashkil etgan.

VAFOT ETGANLAR



Hududlar kesimida vafot etganlar soni

2022- yil yanvar-iyun, kishi




2022- yilning yanvar-iyun oylarida **4,3** mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga o'lim koeffitsiyenti **4,3** promille tashkil etgan hamda 2021- yilga nisbatan **1,9** promillega ko'payganligi kuzatildi (2021- yilning yanvar-iyun oyida **4,4** promille bo'lgan).

*Buxoro viloyatining demografik holati
2022- yil yanvar-iyun*

O'limning asosiy sabablar bo'yicha taqsimlanishi

yanvar-iyun




2022- yilning yanvar-iyun oylarida qayd etilgan o'lim holatining **63,6** % i – qon aylanish tizimi kasalliklaridan, **8,4** % i – o'simtalardan, **4,7** % i – nafas olish a'zolari kasalliklaridan, **5,0** % i – baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, **3,4** % i – ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, **0,8** % i – yuqumli va parazitar kasalliklardan, **14,1** % i boshqa kasalliklardan vafot etganlari.

QAYD ETILGAN NIKOHLAR


Nikohlar soni,

mingbirlik



Hududlar kesimida nikohlar soni

2022- yil yanvar-iyun, birlik




2022- yilning yanvar-iyun oylarida **6,5** mingta nikoh qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga nikoh koeffitsiyenti **6,6** promilleni tashkil etgan hamda 2021- yilga nisbatan **-1,2** promillega kamayganligi kuzatildi (2021- yilning yanvar-iyun oylarida **7,8** promille bo'lgan).

Eng yuqori nikoh koeffitsiyenti (promille) Buxoro shahri (8,1), Kogon shahri (7,2), Olot (6,8) tumanlarida kuzatildi.

Eng kam nikoh tuzish koeffitsiyenti (promille) Romitan (6,0), Jondor (5,7), Shofirkon (5,4) tumanlarida kuzatildi.


NIKOHDAN AJRALISHLAR

Nikohdan ajralishlar soni, mingbirlik



Nikohdan ajralishlar soni

2022- yil yanvar-iyun, birlik



2022- yil yanvar-iyun oylarida **1,4** mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga nikohdan ajralishlar koeffitsiyenti **1,4** promilleni tashkil etgan hamda 2021- yilga nisbatan **0,3** promillega oshganligi kuzatildi (2021- yil yanvar-iyun oylarida **1,1** promille bo'lgan).

Eng yuqori nikohdan ajrashganlar koeffitsiyenti (promille) Buxoro (2,7), Kogon (2,1) shaharlariда. Olot (1,7).

Eng kam nikohdan ajrashganlar koeffitsiyenti (promille) Romitan, Jondor (0,9), Shofirkon (0,7)



AHOLI MIGRATSİYASI

2022- yil yanvar-iyun oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar jami soni **2 983** kishini, shu jumladan viloyatning boshqa hududlaridan ko'chib kelganlar **2 974** kishini, xorijiy mamlakatlardan ko'chib kelganlar **9** kishini tashkil etdi. Ko'chib ketganlar soni jami **4 595** kishini, shu jumladan viloyatning boshqa hududlariga ko'chib ketganlar **4 571** kishini, xorijiy mamlakatlarga ko'chib ketganlar **24** kishini tashkil etib, migratsiya saldosi

Buxoro viloyati bo'yicha ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni

2022- yil yanvar-iyun, kishi

	Ko'chib kelganlar			Ko'chib ketganlar		
	Jami	shundan:		Jami	shundan:	
		respublika-ning boshqa hududlari-dan	xorijiy mamlakatlarda n		respublika-ning boshqa hududlariga	xorijiy mamlakatlarga
Buxoro viloyati	2 983	2 974	9	4 595	4571	24

Buxoro sh.	677	671	6	1 097	1 092	5
------------	-----	-----	---	-------	-------	---

Kogon sh.	242	242		225	223	2
-----------	-----	-----	--	-----	-----	---

tumanlar:


Olot	65	64	1	199	199	
Buxoro	497	497		345	343	2
Vobkent	125	125		289	286	3
G'ijduvon	294	292	2	699	687	12
Kogon	377	377		233	233	
Qorako'l	84	84		380	380	
Qorovulbozor	138	138		92	92	
Peshku	92	92		157	157	

Romitan	115	115		189	189	
Jondor	107	107		228	228	
Shofirkon	170	170		462	462	

JAMI KO'CHIB KELGANLAR

Ko'chib kelganlar soni

2022- yil yanvar-iyun, kishi




2022- yilning yanvar-iyun oylarida **3,0** mingta ko'chib kelganlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga ko'chib kelish koeffitsiyenti **3,0** promilleni tashkil etgan hamda 2021- yilga nisbatan **1,0** promillega kamayganligi kuzatildi (2021- yilning yanvar-iyun oylarida **4,0** promille bo'laan).



JAMI KO'CHIB KETGANLAR

Hududlar kesimida ko'chib ketganlar soni
2022- yil yanvar-iyun, kishi



2022- yilning yanvar-iyun oylarida **4,6** mingta ko'chib ketganlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga ko'chib ketish koeffitsiyenti **4,7** promilleni tashkil etgan hamda 2021- yilga nisbatan **1,6** promillega kamayganligi kuzatildi (2021- yilning yanvar-iyun oylarida **6,3** promille bo'lgan).





Demografiya va mehnat statistikasi bo'limi

Tel: (71) 230-83-16, (65) 223-83-37